

Sardorjon G'ulomov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Magistratura" bo'limi uslubchisi
E-mail: gulomovsardorjon@gmail.com
ORCID: 0009-0009-9884-4618*

MUHAMMADSOLI YUSUPOVNING PEDAGOGIK FAOLIYATI: TEATR TA'LIMIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI

***Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston xalq artisti, Qo'qon davlat universiteti professori, teatr va kino aktyori, rejissyor Muhammadsoli Yusupovning pedagogik faoliyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. San'atkorning Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi va Farg'ona shahar San'at kollejidagi o'qituvchilik faoliyati, "Aktyorlik san'ati" mutaxassisligi hamda "Askiya san'ati" yo'nalishining tashkil etilishidagi o'rni, "Ijod" va "Nilufar" teatr studiyalariga badiiy rahbarligi, oliy ta'lim tizimidagi professorlik faoliyati hamda shogirdlarining respublika tanlovlaridagi natijalari yoritiladi. Tadqiqotda K.S.Stanislavskiy, M.O.Knebel, G.A.Tovstonogov qarashlariga tayangan holda rejissyorlik amaliyotining pedagogik mohiyati asoslanadi va o'zbek teatr san'atidagi "universal san'atkor" tipologiyasi M.Yusupov ijodi misolida ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** teatr pedagogikasi, aktyorlik mahorati, "ustoz-shogird" an'anasi, askiya san'ati, teatr studiyasi, rejissura, Farg'ona teatri, universal san'atkor.*

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУХАММАДСОЛИ ЮСУПОВА: ТРАДИЦИИ УЧИТЕЛЬСТВА И УЧЕНИЧЕСТВА В ТЕАТРАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

***Аннотация.** В статье анализируется педагогическая деятельность народного артиста Узбекистана, профессора Кокандского государственного университета Мухаммадсоли Юсупова: преподавание в Ферганской специализированной школе искусств и колледже искусств, создание специальностей «Актёрское искусство» и «Искусство аскии», художественное руководство театральными студиями «Ижод» и «Нилуфар», работа в высшей школе. На основе теоретических положений*

К.С.Станиславского, М.О.Кнебель и Г.А.Товстоногова обосновывается педагогическая природа режиссёрской практики.

Ключевые слова: театральная педагогика, актёрское мастерство, традиция «устоз-шогирд», аския, театральная студия.

THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF MUHAMMADSOLI YUSUPOV: MASTER-APPRENTICE TRADITIONS IN THEATRE EDUCATION

Abstract. *The article analyzes the pedagogical activity of Muhammadsoli Yusupov, People's Artist of Uzbekistan and professor at Kokand State University: his teaching at the Fergana specialized school of arts and college of arts, the establishment of the "Acting" and "Askiya art" specializations, his artistic leadership of the "Ijod" and "Nilufar" theatre studios, and his work in higher education. Drawing on the ideas of K.Stanislawski, M.Knebel and G.Tovstonogov, the study substantiates the pedagogical nature of directing practice.*

Keywords: *theatre pedagogy, acting skills, "master-apprentice" tradition, askiya, theatre studio.*

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, xususan, milliy teatr san'ati uchun malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Bu vazifa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda, jumladan, madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan Prezident qarorida o'z ifodasini topgan [1]. Uzluksiz ta'lim tizimida san'at ta'limining o'рни esa "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda belgilangan umumiy tamoyillar asosida tartibga solinadi [2].

Teatr san'atida kadrlar tayyorlash jarayoni boshqa sohalaridan tubdan farq qiladi: aktyorlik mahorati faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki tajribali ustozning bevosita rahbarligida, sahna amaliyoti davomida shakllanadi. K.S.Stanislawskiy aktyor tarbiyasini uzoq muddatli, tizimli mehnat sifatida talqin qilib, aktyorning "o'z ustida ishlashi" pedagog rahbarligida kechishi lozimligini ta'kidlagan [3, 255-b]. Uning shogirdi M.O.Knebel esa teatr pedagogikasini alohida ijodiy faoliyat turi, ya'ni "pedagogika poeziyasi" sifatida baholagan [4, 41-b]. Shu nuqtayi nazardan,

mintaqaviy teatr maktablarini rivojlantirgan san'atkorlarning pedagogik merosini o'rganish san'atshunoslik fanining dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

San'at sohasida yosh pedagoglar tayyorlashda jonbozlik qilib kelayotgan iqtidorlik pedagoglardan biri O'zbekiston xalq artisti Muhammadsoli Yusupovdir. Iqtidorli mashhur aktyor va mahoratli rejissyor sifatida tanilgan. Yana bir muhim qirrasini – uning pedagogik faoliyatidir. San'atkorning o'qituvchilik yo'li Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi bilan bog'liq. U mazkur muassasada 1996-yildan 2019-yilgacha o'rindosh, 2019-yildan hozirgi kungacha esa asosiy o'qituvchi lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Uning bevosita tashabbusi bilan 1996-yilda Farg'ona shahar San'at kollejida "Aktyorlik san'ati" mutaxassisligi tashkil etilgan. Bu voqea vodiy teatrlari uchun kadrlar tayyorlash imkoniyatini yaratgani bilan muhim ahamiyat kasb etdi, zero shu vaqtgacha vodiy teatrlari asosan poytaxtda tahsil olgan mutaxassislar hisobiga to'ldirilardi.

Hozirgi kunda ushbu bo'lim viloyat va qo'shni viloyatlar teatrlari uchun besh yo'nalish bo'yicha kadrlar yetkazib bermoqda. Xususan, drama teatri aktyori, musiqali drama teatri aktyori, qo'g'irchoq teatri aktyori, askiya san'ati ijrochisi hamda ommaviy bayramlar va teatrlashtirilgan tomoshalar rejissyorligi kabi yo'nalishlardir. Yo'nalishlarning bunday xilma-xilligi bo'limning tor ixtisoslashuvdan ko'ra keng qamrovli sahna madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilganidan dalolat beradi. Natijada ushbu ta'lim vodiy teatr hayotining real ehtiyojlariga – drama, musiqali drama va qo'g'irchoq teatrlari, shuningdek, ommaviy bayram tadbirlariga bo'lgan talabga mos ravishda shakllantirilgan.

M.Yusupov rahbarligidagi aktyorlik san'ati bo'limida 2019-yilda yangi yo'nalish – "Askiya san'ati" mutaxassisligi tashkil etildi va hozirda unda 30 dan ortiq o'quvchi yoshlar askiya san'ati sirlarini o'rganmoqda. Askiya Farg'ona vodiysi xalq tomosha san'atining eng o'ziga xos janrlaridan biri bo'lib, u an'anaviy ravishda og'zaki, ustozdan shogirdga bevosita o'tish yo'li bilan saqlanib kelgan [5, 223–224-b]. Mazkur janrning rasmiy ta'lim tizimiga olib kirilishi nomoddiy madaniy merosni muassasaviy shaklda saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan

muhim qadam sifatida baholanishi lozim. Pedagogik faoliyat samaradorligining eng ishonchli mezonlaridan biri – shogirdlarning xolis baholash sharoitidagi natijalaridir. 2011-yil may oyida respublikadagi barcha san'at va madaniyat kollejlari o'rtasida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "Ijodkor yoshlar ko'rik-tanlovi"da M.Yusupov shogirdlari uchta turli yo'nalishda sovrinli o'rinlarni egallab, ustozlarining yuzini yorug' qildilar. 2025-yil aprel oyida Buxoro shahrida "ART & MUSIC PLANET" MCHJ tomonidan o'tkazilgan "Buxoro sadolari" ijodkor yoshlar respublika ko'rik-tanlovida esa uning shogirdlari eng ko'p natijaga erishganliklari uchun M.Yusupov hakamlar hay'ati tomonidan maxsus tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

Ushbu yutuqlar shundan dalolat bo'ladiki, 2011-yilgi natijalar uch xil yo'nalishda (drama, musiqali drama va qo'g'irchoq teatri) qayd etilgani ustozning turli sahna uslublari bo'yicha teng darajada tayyorgarlik bera olishini ko'rsatadi. Ikkinchidan, oradan o'n to'rt yil o'tib, 2025-yilda sakkiz nafar shogirdning sovrinli o'rinlarni egallashi pedagogik maktabning barqarorligi va vorisiyligidan dalolat beradi. 2019-yilda M.Yusupov tashabbusi bilan Farg'ona shahrida tadbirkorlik asosidagi "Ijod" xususiy teatr studiyasi tashkil etildi. Studiya san'atga qiziquvchi yoshlarni yagona ijodiy jamoaga birlashtirib, ustoz-shogird an'alarini davom ettirib kelmoqda. Xususiy studiya shaklining tanlanishi e'tiborga molik: u rasmiy o'quv rejalaridan tashqarida, erkin ijodiy muhitda yosh aktyorlarning tajriba to'plashiga sharoit yaratadi.

2020-yildan boshlab san'atkor Farg'ona davlat universiteti qoshida tashkil etilgan "Nilufar" teatr studiyasiga badiiy rahbarlik qilib kelmoqda. Uning rahbarligida mazkur studiyada 2020-yilda "Kunda" va "O'rik gullari" dramalari, 2021-yilda "Shapka" satirik komediyasi, 2022-yilda "Yusuf qiziq kuladi" folklor tomoshasi sahnalashtirildi. Repertuardagi janrlar – drama, satirik komediya va folklor tomoshasi – bir-biridan keskin farq qilishi talaba-havaskorlarni turli ijro uslublari bosqichma-bosqich o'rgatishga qaratilgan pedagogik strategiya sifatida talqin qilinishi mumkin. San'atkorning pedagogik faoliyati keyingi bosqichda oliy

ta'lim tizimi bilan bog'landi. M.Yusupov Qo'qon davlat universitetining professori sifatida faoliyat yuritadi, bu esa uning nazariy va amaliy tajribasini yosh avlodga uzatishdagi institutsional ishtirokini yanada kengaytirdi. U talabalarga aktyorlik mahorati, sahna nutqi va rejissyorlik asoslaridan saboq berib, mintaqadagi teatr ta'limi tizimining rivojlanishiga hissa qo'shmoqda. Professorlik faoliyati doirasida talabalarga nafaqat aktyorlik texnikasi, balki teatr tarixi, dramaturgiya asoslari va sahna asarini tahlil qilish metodikasi bo'yicha ham bilim berilishi quvonarli holatdir, zero zamonaviy teatr ta'limi amaliy ko'nikma bilan nazariy bilimning uyg'unligini talab etadi.

M.Yusupovning ijodiy faoliyati bugungi hayotimizdagi dolzarb va yechimini kutayotgan muammolarga ham qaratilgan. U teatrshunos olim va dramaturg M.Umarov tomonidan yozilgan, yoshlar o'rtasida giyohvandlik va uning oldini olish masalalariga bag'ishlangan "Zaharli tomchilar" spektaklini sahnalashtirdi. Ushbu spektakl viloyatdagi barcha o'quv muassasalarida namoyish etilmoqda. Bu holat teatrning tarbiyaviy funksiyasini amalda ro'yobga chiqarishning yorqin namunasi bo'lib, spektakl o'quvchi-yoshlar uchun o'ziga xos profilaktik-ma'rifiy dars vazifasini bajaradi. San'atkor bugungi kunda Isfandiyorning "Zor-zor, onaizor", Anvar Obidjonning "Julqinboy kulgulari" hamda Chingiz Aytmatovning "Nayman ona fojiasi" spektakllari ustida qizg'in ish olib bormoqda. Shuningdek, u 1994-yildan buyon Farg'ona viloyati miqyosida o'tkaziladigan Mustaqillik va Navro'z umumxalq bayramlarida bosh rejissyor va rejissyor sifatida faoliyat ko'rsatib keladi. Ommaviy bayramlar rejissurasidagi o'ttiz yillik tajriba kolleжда "Ommaviy bayramlar va teatrlashtirilgan tomoshalar rejissyorligi" yo'nalishining mazmunan boyishiga bevosita zamin yaratgan, deb hisoblash mumkin.

2025-yil 11-noyabr kuni san'atkorning 70 yillik yubileyi hamda ijodiy faoliyatining 50 yilligiga bag'ishlangan "San'at bilan hamohang umr" nomli tantanali kecha Farg'ona viloyatida o'tkazilib, unda Muhammadsoli Yusupov "O'zbekiston xalq artisti, Qo'qon davlat universiteti professori, teatr va kino aktyori, rejissyor va pedagog" sifatida taqdim etildi [6]. Ushbu tavsif san'atkor faoliyatidagi

aktyorlik, rejissyorlik va pedagogik ish uyg'unligining rasmiy darajada e'tirof etilganini ko'rsatadi. Yarim asrlik ijodiy yo'l davomida u nafaqat sahna va ekranda shaxsiy ijodiy izini qoldirdi, balki o'zidan keyingi avlod aktyor va rejissyorlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

M.Yusupov pedagogik faoliyatining muhim jihatlaridan biri – teatr truppasi doirasida norasmiy ustozlik an'anasining davom ettirilishidir. Bosh rejissyor lavozimida ishlagan yillarda u yosh aktyorlarni tanlash, ularning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, sahna uchun repertuar tanlashda ularning ijodiy o'sishini hisobga olish kabi vazifalarni bajargan. G.A.Tovstonogov rejissyorni truppaning ijodiy tarbiyachisi sifatida ko'rgan va rejissyorlik kasbining pedagogik mas'uliyatini alohida ta'kidlagan [6, 125-b]. Shu ma'noda, M.Yusupovning Farg'ona teatridagi faoliyati teatr pedagogikasining amaliy shakli bo'lib, u nazariy ma'ruzalar doirasidan tashqarida, bevosita ijodiy jarayon ichida amalga oshirilgan.

Rejissyor sifatida spektakl ustida ishlash jarayonining o'zi pedagogik xususiyat kasb etadi, chunki bosh rejissyor nafaqat sahnalashtirish g'oyasini amalga oshiradi, balki har bir aktyorga individual yondashuv orqali uning ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi. M.A.Chexov aktyor ijodiy individualligini ochish rejissyor va pedagogning bosh vazifasi ekanini qayd etgan [7, 87–88-b]. Bu jihatdan Farg'ona teatrida M.Yusupov orqali o'tgan har bir spektaklni kichik bir pedagogik loyiha sifatida ko'rish mumkin: unda tajribali san'atkor o'z bilim va tajribasini yosh hamkasblariga uzatib borgan. Stanislavskiy tizimida ham sahnaviy mashq (repetitsiya) aktyor tarbiyasining asosiy vositasi sifatida qaraladi. Uning pedagogik faoliyatini ikki bosqichli tavsiflash mumkin. Amaliy teatrdagi ustozlik va oliy ta'limdagi professorlik. Ushbu model o'zbek san'at ta'limi tizimining yaxlit namunasi bo'lib, unda amaliy ko'nikma va nazariy bilim bir-birini to'ldiradi. SM.Yusupov 1996-yildan buyon Farg'ona vodiysida teatr ta'limining institutsional asoslarini yaratishda yetakchi rol o'ynagan. Uning tashabbusi bilan "Aktyorlik san'ati" mutaxassisligi tashkil etilib, bugungi kunda besh yo'nalish bo'yicha kadrlar

tayyorlanmoqda. 2019-yilda "Askiya san'ati" yo'nalishining ochilishi xalq tomosha san'atini rasmiy ta'lim tizimi orqali saqlash va rivojlantirishning samarali mexanizmi bo'ldi. "Ijod" va "Nilufar" teatr studiyalari ustoz-shogird an'anasini rasmiy ta'limdan tashqarida davom ettiruvchi muhim maydon vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, Muhammadsoli Yusupov misolida o'zbek teatr san'atida shakllangan "universal san'atkor" tipologiyasining yorqin namunasini ko'ramiz. Bunday san'atkor bir vaqtning o'zida ijrochi, tashkilotchi-rejissyor va murabbiy vazifalarini muvaffaqiyatli uyg'unlashtira oladi. Uning tajribasi teatrlarda faoliyat yuritish san'atkor ijodining miqyosini cheklamasligini, aksincha, mahalliy an'analar bilan chambarchas bog'liq holda o'ziga xos ijodiy uslub shakllantirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 2017-yil 31-may, PQ-3022-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz>*
3. *Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 240 b.*
4. *Кнебель М. Поэзия педагогики. – Москва: ВТО, 1976. – 240 с.*
5. *Кнебель М. Поэзия педагогики. – Москва: Всероссийское театральное общество (ВТО), 1976. – 240 с.*
6. *Товстоногов Г. Зеркало сцены: в 2 т. – Ленинград: Искусство, 1980. – 125 с.*
7. *Чехов М. Литературное наследие: в 2 т. – Москва: Искусство, 1986. – 840 с.*